

Pardayev Sultonmurod

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti,  
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o’qituvchisi,  
falsafa fanlari doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Insoniyat taraqqiyotining eng qadimgi bosqichlarida tabiat hodisalarining mohiyatini bilmaslik oqibatida insoniyat dunyoqarashida ulardan qo’rquv hissining shakllanishiga olib kelganligi tahlil etilgan. Shuningdek, tabiiy-ilmiy bilimlarning shakllanishida diniy bilinlarning o’ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shu bilan birga ilmiy va diniy bilimlarning o’zaro dialektik alaoqadorligi falsafiy jihatdan yoritib berilgan.

**Kalit so’zlar:** teologik yondashuv, ko’pxudolik, animizm, totemizm, fetishizm, yakkaxudolik, Tangrichilik ta’limoti, tabiiy-ilmiy manzara.

## **ИНТЕРПРЕТАЦИЯ РЕЛИГИОЗНЫХ ЗНАНИЙ В ЕСТЕСТВЕННО-НАУЧНОМ ЛАНДШАФТЕ МИРА**

**Абстрактный.** Проанализировано, что на самых ранних этапах развития человечества незнание природы явлений природы привело к формированию страха перед ними в мировоззрении человечества. Также при формировании естественнонаучного знания выявляются специфические особенности религиозного знания. При этом философски объясняется диалектическая связь между научным и религиозным знанием.

**Ключевые слова:** богословский подход, политеизм, анимизм, тотемизм, фетишизм, монотеизм, теология, естественнонаучный взгляд.

## **INTERPRETATION OF RELIGIOUS KNOWLEDGE IN THE NATURAL-SCIENTIFIC LANDSCAPE OF THE WORLD**

**Abstract.** It has been analyzed that in the earliest stages of human development, ignorance of the nature of natural phenomena led to the formation of fear of them in the worldview of mankind. Also, in the formation of natural-scientific knowledge, the specific characteristics of religious knowledge are revealed. At the same time, the dialectical relationship between scientific and religious knowledge is explained philosophically.

**Key words:** theological approach, polytheism, animism, totemism, fetishism, monotheism, Theology, natural-scientific view.

Insoniyat qadimdan boshlab o’zini qurshab turgan tabiat to‘g’risida o’ziga xos yondashuvlarni ilgari surgan. Xususan, dastlabki dunyoqarash shakli bo’lgan mifologiya

zamirida butun tabiat jonli ko'rinishga ega, deb tasavvur qilingan bo'lsa, aksincha, diniy dunyoqarash zamirida butun tabiat xudo tomonidan yaratilgan, degan g'oya muhim ahamiyat kasb etadi. Biz O.Fayzullayevning: «Diniy ta'limotlarda tabiat ruhiy ibtidoning moddiy gavdalanishi deb hisoblangan va xudo tabiatdan yuqori turadi»<sup>1</sup>, degan fikrini asosli deb hisoblaymiz. Chunki, ularda tabiat ruhiy ibtidoning ajralmas moddiy ko'rinishi sifatida Xudo tomonidan yaratilgan degan g'oya ustuvorlik qiladi. Shu bilan birga, tarixiy nuqtai nazardan dinning paydo bo'lishi haqida fanda ikki xil ya'ni teologik yondashuv va materialistik yondashuv mavjud. Birinchi yondashuvga ko'ra, dinning paydo bo'lishi insoniyatning yaratilishi bilan bog'liq. Xususan, xudo dastlab insonlarni yaratishi bilan ularga o'zini tanitadi, natijada, inson ilk marotaba dinga e'tiqod qilish jarayonini boshlaganligi etirof etiladi. Tahlilimizga ko'ra, teologik yondashuvda turli darajadagi buyumlargacha sig'inish va ko'pxudolik, jumladan, animizm, totemizm, fetishizm kabi dinning ilk ibtidoiy ko'rinishlari yakkaxudolilikdan keyin yuzaga kelganligi e'tirof qilinadi.

Bizning fikrimizcha, dinlarning kelib chiqishi haqidagi qarashlar ikkinchi yondashuv ya'ni «materialistik» yondashuvning paydo bo'lishi antik davrga borib taqaladi va ilk bor qadimgi yunon faylasuflari qarashlari orqali ochib berilgan. Darhaqiqat, XVI-XVII asrlardan boshlab, G'arbda cherkov hokimiyatining susaya boshlashi, hurfikrlilik namoyandalarining paydo bo'lishi, XIX asrning ikkinchi yarmida Charlz Darwin tomonidan «Turlarning kelib chiqishi» nomli asarning chop etilishi materialistik yondashuvning shakllanishiga katta turtki bo'ldi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Maks Myuller dinning kelib chiqishi tabiat hodisalarining insonga bergen dahshatidan kelib chiqqanligini aytadi va uni «naturalizm» orqali ochib beradi. U naturalizmni, fizikaviy muhitda uchraydigan quvvat va mavjudotlarning ilohiyashtirilishi ekanligini targ'ib qilgan va fikrini hinduizmning muqaddas kitobi vedalarga tayanib asoslagan. U vedalardagi xudo nomlarining tabiat hodisalari bilan aloqadorligini ochib bergen. Misol uchun «Agni» xudosi olovga va «Dyaus» xudosi osmonga qiyoslangan. Uning fikricha, deyarli hamma dinlarda xudo nomlari, dastlab tabiat hodisalari va tabiat kuchlariga g'ayritabiyy baho berishga moyilligi bilan ahamiyatlidir. Bu g'oya esa, zamonaviy xind dinlarida ham davom etmoqda.

Adabiyotlarda, qadimgi turkiylar e'tiqodiga ko'ra, butun tabiat ustidan yagona hukmdor bo'lgan Tangri o'ziga bir qator ko'makchi ma'budlarni yaratganligiga duch kelamiz. Jumladan, bu yerda Umay tangrisi panteon bo'lib, xususan, u yer, suv, olov, quyosh, oy, yulduzlar, havo, bulut, shamol kabi bir qator ma'buddalaridan tashkil topgan. Tangri tomonidan butun borliq yaratilganligi va cheksiz koinotda erkak ko'rinishidagi yagona xudo sifatida e'tirof etilganligi uning qudratini namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan, Tangri koinotning egasi bo'lib, uning doimiy yashash makoni osmon orqali aks etgan. Darhaqiqat, Tangrichilik ta'limotida tabiat va odamlar o'rtasida chegara ya'ni me'yor bo'lishi lozim. Bizning fikrimizcha, ushbu diniy ta'limotning ijobiy jihat, insonlarga atrof-muhit bilan hamkorlikda yashashga targ'ib qilinganligida namoyon bo'ladi.

O'z navbatida, dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasida asosiy mezonzlarni shakllanishiga yordam bergen dastlabki diniy tasavvurlar negizida urug'-qabila dirlari, milliy dirlar va

<sup>1</sup> Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси. – Тошкент: Фалсафа ва хукуқ, 2006. – Б. 14.

jahon dirlari vujudga kelganligini aytish joiz. Insoniyat taraqqiyoti mobaynida din bilan ko'plab voqeа va hodisalar tabiiy va ilmiy jarayonlar bilan aloqador holda yuzaga kelgan. Darhaqiqat, buning natijasi o'laroq qadimda paydo bo'lgan animizm, totemizm, fetishizm, shomonizm va magiya kabi ibtidoiy dinlar dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasi bilan uzviy bog'liq ravishda ya'ni tabiatdagi narsalar va hodisalarni g'ayritabiyy mavjudotlarga bog'lab o'rganish natijasida paydo bo'lganligi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan va ularning zamonaviy tabiiy-ilmiy bilimlarning asosi ekanligi isbotlangan.

Bizning fikrimizcha, dinni o'rganishga nisbatan yondashuvlar bir-biridan farq qiladi. Mifologik maktab asoschisi M.Myuller nazariyasiga ko'ra, dinning assosida qadimgi insonlarning tabiat to'g'risidagi qarashlari yotadi (naturalistik nazariya). Shunga ko'ra bu davrda dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasida naturalistik qarash shakllaridan biri sifatida dinding astral nazariyasi amal qiladi. Ushbu nazariya XVIII asrda paydo bo'lgan va keyinchalik G.Vinkler, E.Shtuken kabi olimlar tomonidan rivojlanтирilgan. Dinning astral nazariyasiga binoan, diniy obraz va miflar samoviy jismlarning harakati orqali namoyon bo'ladi. Astral nazariyalardan biri, ibtidoiy din hisoblangan totemizmda odamning hayvonot yoki o'simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqasi bor, deb ta'kidlangan. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, V.Polikarpovning «Totemizm mafkurasi ijtimoiy ongning birinchi shakli hisoblanadi»<sup>2</sup>, degan yondashuvi diqqatga sazovordir. Totemistik qarashlarga ko'ra, ushbu ibtidoiy dinding paydo bo'lishi odamlarning birligini anglashidan yuzaga kelganligi va bu birlikning tashqi belgisi sifatida tabiiy jarayonlar tashkil qilishi e'tirof qilinadi. O'z navbatida, bu ibtidoiy dinding elementlarini hozirgi davrda ham uchratishimiz mumkin. Masalan, o'zbeklarda musicha, laylak va qaldirg'ochni muqaddas qushlar sifatida e'zozlanishi totemizmning o'ziga xos ko'rinishlaridan biridir. Undan tashqari, Markaziy Osiyo xalqlarida muchalga qarab vaqtini aniqlash totem e'tiqodlari bilan bog'liq ekanini a'lovida ta'kidlash zarur. Unga ko'ra, ajdodlarimizda odamlarning yoshini, ya'ni tug'ilgan kunidan boshlab qancha yashaganligini muchal orqali, muayyan hayvon nomlari bilan atalgan yil hisobidan keltirib chiqarish bilimlari shakllanganligini alohida e'tirof etish joizdir. Demak, totemizm e'tiqodi insonlarning tabiat bilan uzviy bog'liq holda dunyoqarashi o'sib borishi va natijada kishilarning diniy dunyoqarashida tabiiy o'zgarishlarga olib kelgan, deb xulosa qilish mumkin.

Dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasida ko'rishimiz mumkin bo'lgan dinding yana bir ibtidoiy shakli animizm haqidagi ta'limotdir. Shu ma'noda aytadigan bo'lsak, A.Mo'minov, H.Yo'ldoshxo'jayevlarning: «Ibtidoiy odamlar nafaqat tabiatning buyuk mavjudliklarini, balki yer yuzining ayrim alohida qismlarini, ya'ni tog'lar va daryolar, adir va o'rmonlar kabilarga ham ilohiy munosabatda bo'lar edilar»<sup>3</sup>, degan yondoshuviga qo'shilish mumkin. Zero, ruhlarning borligiga ishonish, tabiat kuchlari, hayvonlar, o'simliklar va jonsiz narsalarni jonli deb tasavvur qilish, ajdodlar ruhini ilohiylashtirish animizmning asosiy mohiyatini o'z ichiga olishini ta'kidlash zarur. E.Teylorning ta'kidlashicha, qadimgi odamlar tabiatning qudratli kuchlari – osmon, yer, quyosh, yomg'ir va boshqa bir qator narsalarda jon va ruhlar mavjudligiga ishonib ularni ilohiylashtirgan. Shuningdek, R.Marett, L.Sternberg kabi olimlar tomonidan animizm davri butun tabiatning animatsiyasi sifatida

<sup>2</sup> Поликарпов В.С. Эстетика, язык, общество // Философские науки. – М.: 1984. № 5. – С. 139.

<sup>3</sup> Мўминов А., Юлдошхўжаев Х. ва бошқалар. Диншунослик. – Тошкент: Mehnat, 2004. – В. 18.

tasavvur qilishi animizm tafakkur uslubi o'zgarishi davridagi alohida bosqich deb xulosaga kelish imkonini beradi.

Biz R.Marettining «Dinning ibtidosi» nomli kitobiga asoslanib dinning kelib chiqish ildizlarini shaxsiyati mavjud bo'lмаган umumiylar dinamik kuchdan qidirish lozimligi haqidagi fikrini asosli deb hisoblaymiz. Zero, moddiy buyumlarda ham g'ayritabiyy xususiyatlar borligiga ishonish orqali dinning yana bir ibtidoiy shakli fetishizm shakllanganligini ham tan olish lozim. Xusan, qadimda jonsiz fetishlar bilan birga jonli fetishlardan ham foydalanilgan. Shu jumladan, qadimgi inson ongida har xil tog', daraxt, tosh, hayvonlar suyagi, qushlarning pati va tumorlarda g'ayritabiyy kuch bor, degan qarashlar asosida ushbu din shakllangan va odamlarning har xil buyumlar, tog'-toshlar, daraxtlarga sig'inishi hozirgi davrda ham davom etayotganligini tan olish lozim. Jumladan, o'zbeklarda qurg'oqchilik davrida yomg'ir so'rash marosimi bo'lgan «Sust xotin» va kuchli shamolni to'xtatish marosimi «Choy momo» va ofat yuz berganda qurbanlik qilish va boshqa bir qator marosimlar insonlarni tabiat bilan uzviy bog'liq holda dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasini shakllanishiga olib kelgan, deb aytish mumkin. Shu ma'noda A.Abduraxmonovning: «Tabiat kuchlarini o'rganishda shomonlar ham g'ayritabiyy qobiliyatiga ega»<sup>4</sup>, degan fikriga qo'shilish mumkin. Shunga ko'ra aytish mumkinki, ushbu ibtidoiy dinda tartibga va muvozanatga solingan yaxlitlik sifatidagi kosmos g'oyasi mavjud. I.Jabborov: «Sehrgarlik yolg'on va ko'zga ko'rinxmaydigan sehrli aloqa va ta'sirlarning tabiatda mavjudligiga ishontirish»<sup>5</sup>, deb izoh bergen. Yuqoridagi fikrdan kelib chiqib aytish kerakki, insonlar tabiatda mavjud bo'lgan ayrim tabiat hodisalariga nisbatan ularda qandaydir darajadagi sehr borligi va ular insonlarga g'ayritabiyy ta'sir qilishini tushunib etgan.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси. – Тошкент: Фалсафа ва хукуқ, 2006. – Б. 14.
2. Поликарпов В.С. Эстетика, язык, общество // Философские науки. – М.: 1984. № 5. – С. 139.
3. Мўминов А., Юлдошхўжаев Ҳ. ва бошқалар. Диншунослик. – Тошкент: Mehnat, 2004. – Б. 18.
4. Abduraxmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: Movarounnahr, 2002. – B. 230.
5. Жабборов И., Жабборов С. Жаҳон динлари тарихи. – Тошкент: 2002. – B. 48.

<sup>4</sup> Abduraxmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: Movarounnahr, 2002. – B. 230.

<sup>5</sup> Жабборов И., Жабборов С. Жаҳон динлари тарихи. – Тошкент: 2002. – B. 48.